

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SHARIPOV AKBAR ILXOMOVICH

**HUDUDNING IJOBIY IMIJINI YARATISHNING TASHKILY- IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08. 00. 12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd) по
экономическим наукам**

Table of contents of the abstract of the dissertation for a PhD in Economics

Sharipov Akbar Ixomovich

Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Шарипов Акбар Илхомович

Совершенствование организационно-экономических механизмов формирования положительного имиджа региона.....29

Sharipov Akbar Ikhomovich

Improving organizational and economic mechanisms for forming a positive image of the region57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SHARIPOV AKBAR ILXOMOVICH

**HUDUDNING IJOBIY IMIJINI YARATISHNING TASHKILY- IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08. 00. 12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abdullayev Ilyos Sultanovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Otajanov Umid Abdullayevich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
	Avezov Mirzabek Komilovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

U.R. Matyaqubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b., i.f.d., professor

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi PhD, dotsent

B.Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar sharoitida hududlar raqobatbardoshligini oshirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlarning nafaqat moddiy resurslardan, balki nomoddiy aktivlardan samarali foydalanishi, shuningdek, ichki va foydalanilmagan salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondoshlar va vositalari yanada yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Brand Finance's reyting ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda AQSh 32,3 trillion AQSh dollari qiymatiga ega bo'lgan dunyodagi eng qimmat milliy brend sifatida Xitoy esa 20 trillion dollarga yaqin brend qiymatini bo'yicha reytingda ikkinchi o'rinni egallagan¹. Mazkur natijalar mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida innovatsion mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi hudud imijini yaratishni taqozo etmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududiy ijobiy imijini yaratishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish natijasida investitsiyaviy va turistik jozibadorligini oshirib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi va global bozordagi raqobatbardoshlik mustahkamlanadi. Hududlar o'zlarining noyob iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy strategik yo'nalishlarni belgilash orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshib boradi. Shu bois hududning imijini yaratishga qaratilgan umumiy rivojlanish va nufuzga erishish strategiyalarini ishlab chiqish, hudud brendini jozibadorligini oshirish va ijobiy imijini yaratish asosida aholi daromadlarini oshirish bo'yicha istiqbolli strategiyalar ishlab chiqishning kompleks yondashuvlardan foydalanish muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni xalqaro bozor talablariga mos tarzda tashkil etish hamda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda strategik rivojlanishga yuqori e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish", "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash"² kabi strategik maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hududlarning hudud imijini shakllantirish va mahalliy brendlarni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surishgaga qaratilgan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish, hududlarning mavjud resurslarini inobatga olgan holda tarmoqli rivojlanish modelini ishlab chiqish, hududlarning investitsiyaviy va turistik jozibadorligini oshirish orqali jahon bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash,

¹ <https://brandirectory.com/reports/global>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

hududlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini rag'batlantirish maqsadida raqamli platformalar va texnologiyalardan samarali foydalanish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 18-avgustdagi PF-6042-son "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4135-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentyabrdagi 592-son "Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 30-martdagi 169-son "O'zbekiston respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hududning ijobiy imijini yaratish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo'nalishidir. Bu borada Bamituni A., Rehailia H., Saadi I., Paswanb K., Margie T., Parvex F., Kotler P., Cuong M., Barnes J.G., Wells, L. T., Pino G., Guido G., Peluso A. M., Foroudi P.,³ kabilarning ilmiy ishlari klassik hududiy marketing nazariyalarini o'z ichiga olgan. Ko'rsatib o'tilgan tadqiqotchilarning hududiy marketing nazariyasiga qo'shgan salmoqli hissasiga qaramay, ularda hududlarni jozibador hudud imijini shakllantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning, hududlarning nomoddiy resurs

³ Bamituni Abamu. Introducing Investment Promotion: A Marketing Approach to Attracting Foreign Direct Investment November 2019 International Journal of Marketing Studies 11(4):91. DOI:10.5539/ijms.v11n4p91.; Rehailia Hassib, Saadi Ibtissem. Territorial marketing: A tool for developing the attractiveness of territories. ITU A|Z. Vol 15 No 3. November 2018. 61-69; K. Paswanb, and Margie T. Country Resources, Country Image, and Exports: Country Branding and International Marketing Implications. Journal Of Global Marketing. 2016, VOL. 29, NO.4 , 233-246; Parvex, F. (Association S. pour le service aux régions et aux communes). (2009). Introduction. Marketing territorial quand le territoire devient produit. In Marketing territorial. Quand le territoire devient produit.; Котлер, Ф. Маркетинг мест: Привлечение инвестиций, предприятий, жителей и туристов в города, коммуны, регионы и страны Европы / Ф. Котлер, К. Асплунд, И. Рейн, Д. Хайдер; [пер. с англ. М. Аккая при участии В. Мишучкова]. – Санкт-Петербург: Стокгольм. шк. экономики, 2005. – 375 с.; Mai The Cuong. The Marketing Approach to FDI Attraction. Vietnam Development Forum and National Economics University February 2005.; Barnes J.G. Exploring the importance of closeness in customer relationships. American marketing Association Conference, Dublin, June, 1997. P. 227; Wells, L. T., Jr. "Marketing Strategies to Attract Foreign Investment." In Multinationals in the Global Political Economy, edited by L. Eden and E. Potter, pp. 168-186. New York: St. Martin's Press, 1993.; Pino G., Guido G., Peluso A. M. Perceived images and vocations of local territorial systems: implications for place branding strategies //Journal of Product & Brand Management. – 2015. – Т. 24. – №. 3. – С. 287-302.; Foroudi P. et al. A framework of place branding, place image, and place reputation: Antecedents and moderators //Qualitative Market Research: An International Journal. – 2016. – Т. 19. – №. 2. – С. 241-264..

imkoniyatlardan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Rosokhata A. S., Ivanov Ye. Yu., Frik O. V., Belousova M. V., Romanko I. Ye., Sereda T. N., Gorbushina O. P., Moiseenko Ye. V., Zayneeva K. A. singari olimlar⁴ tadqiqotlar olib borganlar. Amalga oshirilgan ilmiy ishlarda hududlarning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish, shaharlar brendi va diqqatga sazovor joylar bo'yicha brending siyosatini yuritish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekistonda hududlarning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda imij yaratishning zamonaviy strategiyalardan foydalanishning umumiy jihatlari Ergashev A.H., Mustafakulov Sh.E., Batirova N.Sh., Murtazaev I.B., Valiev B.B., Rajabov N.R., Fayzullaev K., Alievich A. R., Tursunov K. B., Barotova N. va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatib berilgan⁵. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamiga qaramay, hudud imijini shakllantirish va investitsion salohiyatdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, aholining farovonligi oshirishga qaratilgan barqaror rivojlanish dasturlarni belgilashda masalalari mukammal va tizimli ravishda o'rganilmagan. Ushbu muammoni hal etish zaruriyati tadqiqot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilashga imkoniyat yaratadi.

⁴ Rosokhata A. S. et al. Methodical tools research of place marketing via small and medium business development. – 2021.; Иванов Е. Ю. Имидж органов местного самоуправления как элемент маркетинговой стратегии развития территории //Прогрессивная экономика. – 2024. – №. 4. – С. 185-193.; Фрик О. В. Маркетинговые аспекты стратегического развития региона //Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. – 2024. – №. 2 (60). – С. 10-14.; БЕЛОУСОВА М. В. Маркетинговая стратегия продвижения имиджа территории //Юность и знания-гарантия успеха-2023. – 2023. – С. 51-55.; Романько И. Е. Маркетинг территорий как фактор модернизации экономики и формирования благоприятного имиджа территории //Социально-гуманитарные знания. – 2019. – №. 12. – С. 113-121.; Серeda Т. Н. Маркетинг города как фактор формирования благоприятного имиджа территории //Вестник Полоцкого государственного университета. Серия Д. Экономические и юридические науки. – 2019. – №. 5. – С. 68-71.; Горбушина О. П. Стратегия реализации целей пространственного маркетинга путём формирования позитивного имиджа территории. – 2022.; Моисеенко Е. В. Роль имиджа территории в региональном развитии //Приоритеты развития АПК в условиях цифровизации и структурных изменений национальной экономики. – 2023. – С. 388-392.; Зайнеева К. А. и др. Маркетинговые стратегии и политика продвижения имиджа региона //Тинчуринские Чтения-2021 «Энергетика и цифровая трансформация». – 2021. – С. 445-448..

⁵ Мустафакулов Ш.Э. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-услугий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Т.: Ўз.Р.Банк молия академияси. 2017 й.; Эргашев А.Х.. Худудларнинг инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш истиқболлари (Фарғона вилояти мисолида). 08.00.11 – Маркетинг, 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит иқтисослиги бўйича и.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018 йил; Батирова Н.Ш. Инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида минтақа саноати ривожланишининг йўналишлари (Тошкент вилояти мисолида). 08.00.12 – Минтақавий иқтисодиёт. И.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2021; Муртазаев И.Б. Навоий вилояти иқтисодиётини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. 08.00.12-Минтақавий иқтисодиёт. 08.00.12 – Минтақавий иқтисодиёт. И.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2021; Валиев Б.Б. Ўзбекистонда худудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. 08.00.12 – “Минтақавий иқтисодиёт” Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of science) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2021.; Ражабов. Н.Р. Инвестицион муҳит жозибadorлигини бошқаришни такомиллаштириш (Навоий ЭИЗ мисолида). 08.00.13 – Менежмент. И.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2021 йил; Fayzullaev K., Cassel S. H., Brandt D. Destination image in Uzbekistan—heritage of the Silk Road and nature experience as the core of an evolving Post Soviet identity //The Service Industries Journal. – 2021. – Т. 41. – №. 7-8. – С. 446-461.; Aliyevich A. R. UDK: 332.14 The Essence, Role And Significance Of Regional Marketing In The Regional Socio-Economic Development System //rustamovich//Heteropteran bugs and developing periods. – С. 10.; Турсунов К. Б. Навоий вилоятининг инвестицион имижини яратиш хусусиятлари //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – 2020. – Т. 4.; Barotova N. Marketing of destinations as a modern approach to the management of the tourist region //Интернаука. – 2018. – №. 20-2. – С. 36-38..

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududiy rivojlanishning zamonaviy nazariyalari va imij yaratish kontseptsiyalarini aniqlash;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

xorijiy mamlakatlarning yirik shaharlar imijini yaratish tajribalari va qo'llanilgan strategiyalar va ulardan O'zbekiston hududlarida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va shakllangan imij tavsifi tahlil qilish;

hududning tashqi va ichki muhitini monitoring qilish, uning jozibadorligi oshirish siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

Xorazm viloyatida hududiy imijini shakllantirishda strategik marketingdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilish;

Xorazm viloyatining ijobiy imijini yaratish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ijobiy nufuzga erishish strategiyalarini ishlab chiqish;

Xorazm viloyatining ijobiy investitsion imijini yaratishda strategik dastaklardan foydalanishni takomillashtirish;

Xorazm viloyatining ijobiy imijini yaratish asosida aholi daromadlarini oshirish yo'llari va istiqbollari aniqlash;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Xorazm viloyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy abstraktsiya, induktsiya va deduktsiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, so'rov, SWOT-tahlil, korrelyatsion, regression tahlil, omilli tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududiy imij muayyan hudud haqida jamoatchilik ongida hamda tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamda shaxsiy tajribalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida shakllanadigan tasavvurlar majmui sifatida takomillashtirilgan;

Xorazm viloyatining investitsion imij yaratish platformasini shakllantirish bosqichlariga mos strategik dastaklaridan foydalanish orqali hududni qisqa va uzoq muddatli strategik rivojlantirish hamda jozibadorligini oshirishga qaratilgan imijni yaratishning strategik xaritasi taklif etilgan;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasini imij jozibadorlik darajasining standart ($1 \leq HJI \leq 4$), an'anaviy ($4.1 \leq HJI \leq 7$) va noyob ($7.1 \leq HJI \leq 10$) mezonlarda,

shaklanish darajasini spontan ($r < 0.3$) qisman shakllanuvchi ($0.3 \leq r < 0.7$) maqsadli shakllangan ($r \geq 0.7$) mezonlarda baholash asosida taklifi asoslangan;

Xorazm viloyatida hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillar ta'sirida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real umumiy daromadlar hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun SWOT tahlilning takomillashtirilgan yondashuvi asosida jozibadorligini oshirishning asosiy strategik yo'nalishlari taklif etilgan;

yirik shaharlarning hudud imiji uchun foydalangan strategiyalar tizimlashtirilgan va O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

Xorazm viloyatida ishbilarmonlik imijga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasi indikatorlarini jamlanma baholash ko'rsatkichlari taklif etilgan;

hudud reputatsiyasini sifat, jozibadorlik, ishonchlilik va shaklanish darajasi turli xususiyatlar asosida baholashning mezon va indikatorlari taklif etilgan;

Xorazm viloyatining ijobiy reputatsiyani ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi;

hududning investitsion imijini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni ketma-ketligining strategik xaritasi ishlab chiqilgan;

Xorazm viloyatining investitsion imij yaratish platformasini shakllantirish taklif asoslangan;

Xorazm viloyatida hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillar ta'sirida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchlili qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, muhim ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanilganligi, empirik natijalarining maqsadga muvofiq tahlil va talqin etilganligi, tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini shakllantirish amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, hududlar rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, hududlar imidjini ta'minlovchi omil hamda manbalarni aniqlash, masalaning ilmiy-uslubiy jihatlarini boyitish va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublika hududlarning ijobiy imijini yaratishga va aholini farovon turmush darajasiga erishishga qaratilgan strategiyalarini belgilab olish hamda va hududiy rivojlanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“hududiy imij – bu muayyan hudud haqida jamoatchilik ongida shakllanadigan dinamik va ko‘p qirrali bo‘lib, u tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamda shaxsiy tajribalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida shakllanadigan tasavvurlar majmui sifatida qaralishi lozim.

hududiy imij muayyan hudud haqida jamoatchilik ongida hamda tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamda shaxsiy tajribalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida shakllanadigan tasavvurlar majmui sifatida takomillashtirilgan. bo‘yicha taklif Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2024-yil 17-maydagi “Xorazm viloyati shahar va tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-127/4-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 3-apreldagi 20-698-son ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalarida tahlil olayotgan talabalarda tasavvurlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “hududiy imij” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish va shu orqali ularning iqtisodiy bilim va malakalarini yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

Xorazm viloyatining investitsion imij yaratish platformasini shakllantirish bosqichlariga mos strategik dastaklaridan foydalanish orqali hududni qisqa va uzoq muddatli strategik rivojlantirish hamda jozibadorligini oshirishga qaratilgan imijni yaratishning strategik xaritasi bo‘yicha taklif Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2024-yil 17-maydagi “Xorazm viloyati shahar va tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-127/4-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 3-apreldagi 20-698-son ma’lumotnomasi) Mazkur ilmiy yangilikdan foydalanish asosida Xorazm viloyatining mijini yaratishda yashil marketing, investitsion marketing, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan strategik dasturlar ishlab chiqilgan;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasini imij jozibadorlik darajasining standart ($1 \leq HJI \leq 4,0$), an’anaviy ($4,1 \leq HJI \leq 7$) va noyob ($7,1 \leq HJI \leq 10$) mezonlarda, shakllanish darajasini spontan ($r < 0,3$) qisman shakllanuvchi ($0,3 \leq r < 0,7$) maqsadli shakllangan ($r \geq 0,7$) mezonlarda baholash bo‘yicha taklif Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2024-yil 17-maydagi “Xorazm viloyati shahar va tumanlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-127/4-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 3-apreldagi 20-698-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikdan foydalanish asosida Xorazm viloyatining 2024-yil yakunlari bo‘yicha Respublika hududlari reytingidagi o‘rnini 2023-yilga nisbatan 1 pog‘onaga oshirishga va imij yaratishga yo‘naltirilgan turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda samarali foydalanilgan;

Xorazm viloyatida hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillar ta’sirida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan aniqlangan prognoz qiymatlari bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 3-apreldagi 20-698-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida viloyatda aholi jon boshiga daromadlarining 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda 2,5-marta oshirish imkoni

aniqlanib, hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarining istiqboldagi ko'rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda hamda 7 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida, hududiy rivojlanishning zamonaviy nazariyalari va imij yaratish konsepsiyalari aniqlangan. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslari taklif etilgan. Xorijiy mamlakatlarning yirik shaharlar imijini yaratish tajribalari va qo‘llanilgan strategiyalar va ulardan O‘zbekiston hududlarida foydalanish imkoniyatlarini aniqlangan.

Dunyo mamlakatlari tomonidan hududiy rivojlanish strategiyalaridan foydalanish orqali maqsadli imij yaratishga va brend taniqligini oshirishga intilib keladi. Hudud – bu iqtisodiy faoliyatning turli shakllari amalga oshiriladigan joy bo‘lib, u yerda iqtisodiy subyektlar uchun bozor raqobatbardoshligini oshiradigan xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, “hududlarning jozibadorligi” tushunchasi nazariy jihatdan ham, hududni rivojlanishining strategik boshqarish amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda hudud imijini yaratish strategiyalari yaqinda paydo bo‘lgan vosita sifatida, uning rivojlanish istiqbollari ochadigan va davlat boshqaruv madaniyatiga yangi “qon” olib kiruvchi vositaga aylangan.

Hudud iqtisodiyotining zamonaviy nazariyalari doirasida ijtimoiy, investitsion va turistik salohiyatini oshirish uchun imij yaratish strategiyalarini joriy qilish talabi mavjud. Hududlar uchun imij yaratish jarayonida uningning xususiyatlari, tabiiy resurslari, ijtimoiy infratuzilmasi va turizm imkoniyatlari kabi omillar inobatga olinadi. Imij yaratish konsepsiyalari esa hududning o‘ziga xos jihatlari ajratib ko‘rsatish va ularni global miqyosda namoyon etish bilan asoslanadi. Hudud imijini yaratishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar joy (hudud) marketing konsepsiyalari asosida amalga oshiriladi.

Hudud marketingi – hudud imijini oshirishga yordam beradigan tizimini tashkil etuvchi marketing vositalarining strategik majmui bo‘lib, tadbirkorlik tuzilmalari va aholi uchun diqqatga sazovor joy hamda uning jozibador xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yaratish, tarqatishga qaratilgan faoliyatlar, shuningdek, hudud imijini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan targ‘ibot tadbirlaridir. Jahon mamlakatlarida hududlarning raqobati kuchaygan sharoitda ijobiy imij yaratishga alohida ahamiyat qaratiladi va uni investitsiyalar, turistlar va biznes uchun jozibador qiladi. Ushbu holatlardan kelib chiqqanda hudud marketingi va hudud imiji bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lib, hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy imij – bu odamlarda ma’lum bir hududning tabiiy-iqlim sharoiti, tarixiy, etnografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-psixologik va boshqa xususiyatlari haqida paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ular va obrazli, emotsional bog‘liq tasavvurlar to‘plamidir. Shuningdek, hudud imiji – bu ma’lum bir joyning xususiyatlari va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi tasavvur bo‘lib, shaxsiy emotsional-psixologik tajriba va/yoki ushbu hudud haqida tarqalgan fikrlar va axborotga asoslanadi.

Hududiy imij – bu muayyan hudud haqidagi umumlashtirilgan, dinamik va subyektiv tasavvurlar majmuasi bo‘lib, shaxsiy tajriba, ijtimoiy ta’sirlar, axborot manbalari va targ‘ibot natijasida shakllanadi. Hududiy imij vaqt davomida turli omillar hisoblangan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar va tabiiy ofatlar kabi holatlarga bog‘liq holda rivojlanadi va o‘zgarib boradi.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar asosida “Hududiy imij – bu muayyan hudud haqida jamoatchilik ongida shakllanadigan dinamik va ko‘p qirrali tushuncha sifatida tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamda shaxsiy tajribalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar ta’siri ostida shakllanadigan tasavvurlar majmui sifatida qaralishi lozim. U hududning ichki va tashqi qabul qilinishini, uning investitsion va turistik jozibadorligini, demografik rivojlanishini va aholining ijtimoiy barqarorligini belgilab beradi va natijada hududlar raqobatbardoshligini oshirish va aholini farovon turmushini shakllantiradi. Shunga asoslangan holda hududiy imijni samarali shakllantirish hududning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Hudud imijini shakllanishi faol amalga oshiriladigan marketing strategiyalari, investitsiya siyosati va davlat imij siyosati orqali o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun, uning shakllanishi va rivojlanishi davlat hokimliklari, tadbirkorlar va jamoatchilik uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Hududiy imijni oshirish strategiyalarining muvaffaqiyati ko‘pincha tarixiy meros, madaniyat, innovatsiya, sport va turizm kabi elementlarning uyg‘unlashuviga bog‘liq. Yuqoridagi mintaqalar o‘z brendini yaratishda o‘ziga xos resurslardan samarali foydalangan. Kelajakda hududiy imijni oshirishni istagan mamlakat va shaharlar ushbu strategiyalardan ilhom olib, o‘ziga mos yo‘nalishni tanlashi mumkin.

Hududiy imijni oshirishda madaniyat, iqtisodiy rivojlanish, sport, innovatsiyalar va kommunikatsiya strategiyalarining uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi. Andalusiya, Bavariya, Silikon vodiysi, Barselona va Shotlandiya o‘ziga xos yondashuvlardan foydalangan bo‘lsa-da, ularning barchasi o‘z hududiy brendini mustahkamlash uchun boy tarix, zamonaviy texnologiyalar va samarali marketing vositalaridan foydalanishga asoslangan (1-jadval).

Hududiy marketing strategiyalari uchun asosiy ko'rsatkichlar⁶

Ko'rsatkichlar	Asosiy ko'rsatkichlar	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga aloqadorligi
Iqtisodiy o'sish	Mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning o'sishi	Marketingning mahalliy iqtisodiyotga bevosita ta'siri
Ish bilan ta'minlash	Ish bilan ta'minlash stavkalarining o'zgarishi	Ish o'rinlarini yaratishda marketingning roli
Investitsion jalb qilish	Mahalliy va xorijiy investitsiyalar hajmi	Kapitalni jalb qilishda marketing muvaffaqiyatining ko'rsatkichi
Turizmni rivojlantirish	Regionga kelgan sayyohlar soni	Turizm marketingi strategiyalarining samaradorligini aks ettiradi
Manfaatdor tomonlarning qoniqishi	Tadbirkorlar va aholining so'rovlari va fikr-mulohazalari	Marketing strategiyasining mintaqaviy ehtiyojlarga mos kelishini o'lchaydi

O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qator marketing strategiyalari qo'llanilmoqda. Xususan, O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotning o'sishini rag'batlantirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida turli tarmoqlarda innovatsion marketing strategiyalari qo'llanilmoqda. Biroq, barcha hududlarda o'ziga xos bozor tizimlari va shakllangan raqobat muhiti bo'lib, ularda imij yaratishga qaratilgan strategik maqsadlar turlicha bo'lishini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning barcha hududlarida, jumladan Xorazm viloyatida imij yaratish strategiyalarini ishlab chiqish uchun quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratishni talab etadi:

- noyob mintaqaviy resurslardan foydalanish: har bir mintaqada o'zining noyob resurslarini aniqlashi va ularni samarali targ'ibotini amalga oshirishi lozim. Xorazm viloyati uchun bu tarixiy joylar, turistik maskanlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qayta tiklanadigan energiya salohiyati kabilarni o'z ichiga oladi;

- infratuzilmaning mavjud holati va rivojlanishi: transport, aloqa va texnologik infratuzilmani yaxshilash investitsiyalarni jalb qilish va mintaqaning imijini oshirish uchun yuqori ahamiyatga ega omil sifatida qaralishi lozim;

- hamkorlik aloqalari: davlat, biznes va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik sa'y-harakatlari hududiy marketing tashabbuslarini samaradorligini oshirishning asosiy omilidir;

- raqamli marketing vositalaridan foydalanish: ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va onlayn reklama kabi raqamli marketing vositalarini qabul qilish mintaqalarga keng auditoriyalarga erishishga va brend identini samarali ravishda etkazishga yordam beradi;

- mintaqaviy rivojlanishning statistik tahlil ko'rsatkichlari hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdoriy nuqtayi nazarini taqdim etish uchun aholi, investor va turistlarda tasavvurlarni shakllanishining asosiy omili sifatida qarash lozim;

6 OECD (2021). Regional Development and Marketing Strategies: Key Performance Indicators for Socio-Economic Growth. OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org>

Mintaqalar o'zlarining noyob iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini namoyon etishga qaratilgan maqsadli imij yaratish siyosatlarini amalga oshirish orqali milliy taraqqiyot dasturlari bilan hamohang strategiyalarni shakllantirishi zarur.

Samarali imij yaratish strategiyalarini ishlab chiqish O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim imkoniyatdir. Mintaqalar o'zlarining noyob madaniy merosi, tabiiy resurslari va strategik joylashuvidan foydalangan holda investitsiyalarni jalb qilishlari, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga erishish va aholining hayot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida, Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tahlil qilingan va shakllangan imij tavsiflangan. Hududning tashqi va ichki muhitini monitoring qilish, uning jozibadorligi marketing siyosatining yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha tahlil o'tkazilgan. Xorazm viloyatida hududiy imijini shakllantirishda strategik marketingdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida mintaqaviy imiji jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalardan, ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Hudud imiji investitsiya, eksport va import, hamda turizm siyosati bilan bog'liq holda tizimli rivojlanib boradi. O'zbekistonda Respublikasi davlat boshqaruvining amaldagi tizimi esa hududlar imijini mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib hududiy tartibga solishga asoslangan, bu esa har bir hududga xos bo'lgan bozor mexanizmlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning Respublika hududlarida amal qilishi uchun hududiy iqtisodiy tendensiyalar va mavjud salohiyatni hisobga olgan holda rivojlanish strategiyalarini belgilashni nazarda tutadi. Mazkur holatlar esa respublikadagi eng diqqatga sazovor va turizm rivojlangan hudud hisoblangan Xorazm viloyati uchun o'ziga xos strategik yo'nalishlar ishlab chiqishni talab etadi.

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida o'ziga xos o'rniga ega bo'lib, mamlakatning shimoliy g'arbida joylashgan. Viloyatning yer maydoni 6,1 ming kv.km.ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1,4 foizini egallagan. Xorazm viloyati doimiy aholisining soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 995,6 ming kishini tashkil qiladi. Viloyat geografik o'rniga ko'ra 40°-31° va 42° shimoliy kengliklar 60°-62° sharqiy uzunliklar oralig'ida joylashgan. Hududning shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa 280 km, Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan sharqqa 80 km atrofida cho'zilgan(2-jadval). Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy chekka nuqtasi esa Tuproqqal'adan bir muncha janubda joylashgan. Xorazm viloyati, xususan, Xiva shahri – YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan “Ichan-Qal'a” me'moriy majmuasi bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo sayyohlari diqqat markazida bo'lgan va yuqori turistik salohiyatga ega bo'lgan mintaqa sifatida jahonga tanilgan. Umuman olganda Xorazm viloyati – O'zbekistonning tarixiy ildizlarini, milliy an'alarini va iqtisodiy salohiyatini uyg'unlashtirgan hududdir.

O‘zbekiston Respublikasidagi Xorazm viloyatining umumiy ko‘rsatkichlari⁷

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	Xorazm viloyati ulushi
Hudud maydoni	448,978 km ²	6,300 km ²	~1.4%
Aholi soni	37,521,000	1,900,000	~5.2%
Qishloq joylarida yashovchilar	~50%	~67%	Katta ulush

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini investitsion faoliyatni rivojlantirish asosida hududiy rivojlanish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. Natijada hududlar kesimida yaratilgan YAHM (Yalpi hududiy mahsulot) ham o‘tib borgan va viloyatning 2010-yilda 2888,6 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 51261,0 mlrd.so‘mga yetgan. Xorazm viloyatida barqaror rivojlanishni ta‘minlab beruvchi vosita sifatida hududiy marketing va uning tamoyillaridan samarali foydalanish orqali aholining sanoat, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, turizm va boshqa turdagi mahsulotlariga ehtiyojini ta‘minlash, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga talabini qondirishga erishish imkoniyatlari kengayib borgan. Turizm sohasi – viloyat iqtisodiyotining drayverlari bo‘lib, 2024-yilda “Xiva – islom dunyosining turizm poytaxti” deb belgilangani munosabati bilan o‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy, targ‘ibot tadbirlari qadimiy shaharga sayyohlar oqimining keskin oshishiga imkoniyat yaratib kelgan.

Imij yaratishga qaratilgan strategik yondashuvlar hududlar real sektori korxonalariga ikki tomonlama yordam beradi. Birinchidan, u kapitalning eng yaxshi yetkazib beruvchilarini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ularga to‘g‘ri taklif bilan chiqish imkonini beradi. Real setor korxonalari o‘zini xavf va foyda nisbati nuqtayi nazaridan jozibali investitsiyalash obyekti sifatida namoyon etishi kerak.

Xorazm viloyatida ishbilarmonlik muhiti holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasiga umumiy baho berish uchun 5 ta yo‘nalish bo‘yicha baholash indikatorlari taklif etiladi. Mazkur indikatorlar hududlarda shakllangan marketing muhitini ifodalab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimini o‘zida mujassam etgan. Taklif etilgan indikatorlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha shakllangan marketing muhitini ifodalab beradi, uning jami natijaviy qiymati va hududlarning mavjud holati bilan taqqoslash orqali hududning marketing muhitiga tashxis qo‘yish imkoniyatlari mavjud. Shakllantirilgan baholash indikatorlari natijalariga ko‘ra hududning marketing muhiti 4 daraja qabul qilingan bo‘lib, ular quyidagicha shkalalarga ajratilgan:

- 1 – muhit jozibadorlikning salbiy darajasi;
- 2 – muhit jozibadorligining me‘yoriy darajasi;
- 3 – muhit jozibadorligining o‘rtacha darajasi;
- 4 – muhit jozibadorligining yuqori darajasi;

Xorazm viloyatini tegishli indikatorlar tizimi orqali baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasi milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida 2020-2024-yillar davomidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida baholanadi (3-jadval)

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xorazm viloyatida marketing muhitini baholash ko'rsatkichlari, birlik⁸

Indikator (ko'rsatkich) nomi	2020	2021	2022	2023	2024	O'rtacha baholash	Jozibadorlik darajasi
1. Makroiqtisodiy muvozanatlik indikatorlari							
Yalpi hududiy mahsulotning (YHM)ning o'sish sur'ati	2	2	3	2	4	2,6	O'rtacha daraja
Iste'mol narxlarini indeksi	2	3	2	3	3	2,6	O'rtacha daraja
Investitsion faollik	1	2	2	2	3	2	Me'yoriy daraja
Sanoatning YAMMdagi ulushi	3	3	3	3	4	3,2	O'rtacha daraja
Sanoat mahsulotining aholi jon boshi hisobiga o'sishi	2	2	2	3	3	2,4	Me'yoriy daraja
YAMMdagi xizmatlar ulushi	2	2	2	3	3	2,4	Me'yoriy daraja
Xizmatlar hajmining aholi jon boshi hisobiga o'sishi	2	3	3	3	3	2,8	O'rtacha daraja
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash darajasi indikatorlari							
Sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash darajasi	1	2	2	2	2	1,8	Me'yoriy daraja
Korxonalarni modernizatsiyalash, texnika va texnologiya bilan qayta jihozlashga investitsiyalarning o'sishi	2	2	3	3	3	2,6	O'rtacha daraja
Sanoatda mehnat unumdorligining o'sishi	2	2	2	2	3	2,2	Me'yoriy daraja
TIF saldosi	1	2	1	1	1	1,1	Me'yoriy daraja
3. Biznes muhiti indikatorlari							
Tadbirkorlikning yangi subyektlarini tashkil etish	2	3	3	3	4	3	O'rtacha daraja
Tadbirkorlik subyektlarining faolligi	2	1	1	1	1	1,2	Salbiy daraja
Kichik tadbirkorlikni (biznesni) rivojlantirish	3	4	4	4	4	3,8	Yuqori daraja
1000 kishi hisobiga kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni	2	1	1	1	1	1,8	Me'yoriy daraja
4. Investitsion jozibadorlik indikatorlari							
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish surati	3	3	4	4	4	3,6	Yuqori daraja
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda xorijiy kapitalning o'sishi	3	4	4	4	4	3,8	Yuqori daraja
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda xorijiy kapitalning ulushining o'sishi	1	3	4	1	4	2,6	O'rtacha daraja
5. Turizm jozibadorlik indikatorlari							
Xorijiy turistlar oqimining o'sishi	3	4	3	2	3	3	O'rtacha daraja
Mahalliy turistlar oqimining o'sishi	4	4	3	3	3	3,4	O'rtacha daraja
Turistik xizmatlar hajmining o'sishi	1	2	3	3	2	2,2	Me'yoriy daraja
Umumiy baho	2,0	2,6	2,7	2,6	3,1	2,6	Me'yoriy daraja

8 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3-jadvalda Xorazm viloyatining 2020-2024-yillar davomidagi marketing muhiti asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari 5 ballik tizimda baholangan. Natijalariga ko'ra, umumiy marketing muhiti 2020-yilda me'yoriy darajada bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, o'rtacha darajaga o'tdi. Bu esa hududda iqtisodiy va investitsion muhitning yaxshilanganini, lekin hali to'liq yuqori jozibadorlik bosqichiga chiqmaganini ko'rsatadi.

Hududda shakllangan marketing muhitini baholash natijalari YAMM o'sish sur'ati va sanoatning YAMMdagi ulushi 2024-yilga kelib yuqori darajaga yetganligini ko'rish mumkin. Xizmatlar sohasining o'sishi va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtacha darajaga yetgan. Investitsion faollik 2020-yilda salbiy darajada bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib faqatgina o'rtacha darajaga ko'tarildi. Bu hududda hali ham investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha samarali strategik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Xorazm viloyatining jozibadorligini oshirish va marketing siyosatini rivojlantirish uchun ichki va tashqi muhit monitoringi muhim ahamiyatga ega. SWOT va PEST tahlillari asosida raqamli marketing, brend strategiyalari, infratuzilmani yaxshilash va investorlarni jalb qilish viloyatning jozibadorligini oshirishga yordam beruvchi vositalarni aniqlashga yordam beradi. Taklif etilgan strategik tahlil usullari asosida Xorazm viloyati nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham turistik va iqtisodiy markazga aylanishi borasidagi yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Ichki va tashqi muhitni baholash ichki muhit omillari sifatida sanoat, korxonalar, mintaqalar yoki sektordagi reytinglarga ko'ra kuchli va zaif tomonlar sifatida tasniflanishi mumkin, tashqi omillar sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, huquqiy va boshqalar faoliyatdagi imkoniyatlar va tahdidlar ifodalanadi. SWOT tahlili turli xil bilim manbalaridan foydalangan holda ushbu jarayon uchun tayyorlangan mutaxassislar guruhi tomonidan amalga oshirilishi muhimdir. Qabul qilingan mezonlarga asosida omillarni alohida quyidagi guruhlarga ajratish talab etiladi, bular;

kuchli tomonlar – Xorazm viloyatida paydo bo'lgan va hozirgi vaqtda uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar;

ijobiy akseleratorlar – Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy muhiti mavjud va hozirda hudud rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadigan omillar;

zaif tomonlar – Xorazm viloyatidan kelib chiqadigan va hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

salbiy akseleratorlar – hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan Xorazm viloyati muhiti manbalari;

ichki imkoniyatlar – kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan Xorazm viloyati faoliyatining ichki omillari;

tashqi imkoniyatlar – kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan Xorazm viloyati faoliyatining tashqi omillari;


ichki tahdidlar – manbasi Xorazm viloyatida joylashgan, kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar;

tashqi tahdidlar – kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan Xorazm viloyatining ish muhiti manbai bo'lgan omillar.

Keltirib o'tilgan sakkiz guruhga bo'lingan keyingi SWOT omillari 2020 va 2025-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash natijalarini hisobga olgan holda

belgilab olinadi. Bu 2020 va 2025-yillarda Xorazm viloyatining rivojlanishiga ta'sir kuchiga ko'ra omillarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash imkonini bergan. SWOT omillari to'rtta tasniflash mezonini qamrab oladi va 32 ta maydondan iborat shaklni o'z ichiga oladi.

Xorazm viloyatining jozibadorligini "SWOT Plus" tahlilini takomillashtirish jarayonida aniqlangan omillar ro'yxati 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Hududni rivojlantirish va jozibadorligini oshirishning asosiy strategik yo'nalishlar⁹

Bu yerda:

F1: Raqamli marketing texnologiyalarini qo'llash;

F2: Aholining turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlardan foydalanish;

F3: Malakali xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi samarali munosabatlarga asoslangan menejment;

F4: An'anaviy va raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalari;

F5: Yashil iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan strategik yondashuvlar;

F6: Investitsion marketing;

F7: Barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan strategiyalar.

Hozirda kichik bo'lgan va boshqalar tomonidan qadrlanmaydigan, lekin kelesajakda dinamik o'sishga olib kelishi mumkin bo'lgan drayverlarga hamda amalga oshiriladigan islohotlarda ustuvorlik qaratishni talab etadi. Hududni targ'ib qilishda bunday ko'rsatkich omili hududni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan faol foydalanishdir. Mavjud bo'lgan omillar nisbatan qisqaroq muddatga ega bo'lgan doimiy rejalashtirish va dasturlash tadbirlarining asosiy konsepsiyasiga aylanishi lozim.

SWOT tahlil asosida aniqlangan muammolar va strategik yo'nalishlarni hisobga olgan holda hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda inobatga olish maqsadga muvofiq. O'z tabiatiga ko'ra, kengaytirilgan SWOT+ tahlilidan foydalanish orqali amalga qo'yilari strategik rejalashtirish imkoniyatini yuzaga keladi.

⁹ Muallif ishlanmasi

Kengaytirilgan SWOT+ tahlili istiqbolli tadqiqotlar uchun ko‘proq mos keladi va imijni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga asos yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida, Xorazm viloyatining ijobiy imijini yaratish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ijobiy nufuzga erishish strategiyalarini ishlab chiqilgan. Xorazm viloyatining ijobiy investitsion imijini yaratishda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlangan. Xorazm viloyatining ijobiy imijini yaratish asosida aholi daromadlarini oshirish yo‘llari aniqlangan.

Hududning shakllantirilgan ijobiy imiji ma’lum vaqt davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili bo‘lishi mumkin, biroq ijobiy reputatsiya shakllanmasa imij rivojlanishga ijobiy ta’sirlar pasayishi mumkin. Reputatsiya bu o‘zbek tilida “nufuz” “obro‘” sifatida namoyon bo‘lib, ma’lum bir shaxs, tashkilot yoki hudud haqida jamoatchilikda shakllangan umumiy ijobiy yoki salbiy fikrlar va ularning baholashidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy nufuz (reputatsiya) – bu jamiyat ongida uzoq vaqt davomida shakllangan hududning umum-iqtisodiy va dinamik rivojlanish xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi tushunchadir. Nufuz hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kompleks ko‘rsatkichi bo‘lib, investorlar, sayyohlar, fuqarolar va boshqalar ma’lum bir hudud bilan bog‘liq imkoniyatlari va istiqbollarni bo‘yicha shakllangan ijobiy taassurotlaridir. Boshqa tomondan, hudud nufuzi strategik rivojlanish salohiyatini obyektiv ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasini diagnostika qilish aholi, investor va turistlarda ijobiy tasavvurlari shakllantirish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u hududning raqobatbardoshligini oshirish va boshqa hududlarga nisbatan barqaror rivojlanishning nomoddiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Hudud reputatsiyani aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar asosida hudud aholisi, investorlar, turistlar, biznes subyektlari va boshqalar uchun umumiy jozibadorlik darajasini hisoblash imkoniyati mavjud. Hududning umumiy Jozibadorlik Indeksi (HJI) reputatsiya omillari va ularning ta’sir darajasini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Buni amalga oshirish uchun kompleks baholash modelidan foydalaniladi. Umumiy hudud jozibadorlik indeksi (HJI) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$HJI = W_1 * RTR + W_2 * HIJR + W_3 * HIR + W_4 * HBR + W_5 * HRR + W_6 * HHR + W_7 * HTTR + W_8 * HRTR \quad (3.1)$$

Bu yerda,

Hududning tovar va xizmatlar bozori reputatsiyasi (RTR)

Hududning ijtimoiy reputatsiyasi (HIJR)

Hududning ichki reputatsiyasi (HIR)

Hududning biznes-reputatsiyasi (HBR)

Hududning resurs salohiyati reputatsiyasi (HRR)

Hududiy hokimiyat reputatsiyasi (HHR)

Hududning tashqi reputatsiyasi (HTTR)

Hududning raqamli transformatsiyasi reputatsiyasi (HRTR)

W -har bir reputatsiya omili uchun belgilab berilgan vazn koeffitsiyenti (hammasi 1 ga normalashtirilgan holda).

Ushbu yondashuvda yuqori vazn koeffitsiyentiga ega bo'lgan omililar umumiy jozibadorlik bahosiga ko'proq ta'sir qiladi. Hududning jozibadorlik indeksi 4-jadvaldagi mezonlarga ko'ra quyidagicha baholanadi:

- $1 \leq HJI \leq 4$ – Jozibadorlikning standart darajasi
- $4.1 \leq HJI \leq 7$ – Jozibadorlikning an'anaviy darajasi
- $7.1 \leq HJI \leq 10$ – Jozibadorlikning noyob darajasi

4-jadval

Hudud reputatsiyasini turli xususiyatlar asosida baholashning mezonlari¹⁰

Reputatsiya xususiyatlar	$1 \leq R \leq 4$	$4.1 \leq R \leq 7$	$7.1 \leq R \leq 10$
Sifat xususiyati	Past	O'rta	Yuqori
Jozibadorlik darajasi	Standart	An'anaviy	Noyob
Ishonchlilik darajasi	Doimiy beqaror	Beqaror	Barqaror
Shaklanish darajasi	Spontan	Qisman shakllanuvchi	Maqsadli shakllangan

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiya darajasini diagnostika qilish uchun anketa so'rovnomalaridan foydalaniladi (anketa <https://forms.gle/KRAds4go5i2Q2H6H6> havolasi orqali onlayn yig'ilgan). Reputatsiyani o'ziga xos xususiyatlarining holatini tavsiflovchi minimal-maksimal miqdorlar aniq belgilangan intervallar bilan baholash shkalasi shakllantiriladi. Anketa so'rovnomalarida ishtirok etgan jami respondentlar 265 nafarni tashkil etgan. Mazkur anketa natijalari "SPSS statistical" dasturiy paketi asosida qayta ishlangan.

Hududning jozibadorligi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarga bog'liq. Anketa natijalari asosida HJI hisoblab, kuchli va kuchsiz sohalar rivojlanishga strategik imkoniyatlarni aniqlanadi. HJI indeksi yuqori bo'lishi uchun investitsiya muhitini yaxshilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, turizm salohiyatini oshirish va mahalliy aholi ishonchini mustahkamlash kabi choralar ko'rish zarur.

Olingan anketa natijalari asosida hududning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasiga asoslangan jozibadorlik darajasini hisoblash natijalari 5-jadvalda aks etgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasiga asoslangan jozibadorlik darajasining umumiy bahosi 6,18 koeffitsiyentni tashkil etmoqda va bu ko'rsatkich jozibadorlikning an'anaviy darajasiga ega degani.

10 Солодкий Е. А. Маркетинг территорий как фактор социально-экономического развития региона : дис. – ГО ВПО «Донецкий национальный университет экономики и торговли имени Михаила Туган-Барановского». – 2020. – 194 с.

5-jadval

Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasiga asoslangan jozibadorlik darajasi bahosi¹¹

Indikatorlar	O'rtacha qiymat	Sifat ko'rsatkichlari	Vazn koefitsiyentlari	Jozibadorlik
Hududning tovar va xizmatlar bozori reputatsiyasi (RTR)	4,90	0,49	0,14	0,69
Hududning ijtimoiy reputatsiyasi (HIJR)	6,95	0,70	0,15	1,06
Hududning ichki reputatsiyasi (HIR)	4,71	0,47	0,11	0,52
Hududning biznes-reputatsiyasi (HBR)	7,18	0,72	0,15	1,07
Hududning resurs salohiyati reputatsiyasi (HRR)	8,01	0,80	0,12	0,94
Hududiy hokimiyat reputatsiyasi (HHR)	7,10	0,71	0,14	0,97
Hududning tashqi reputatsiyasi (HTTR)	4,88	0,49	0,10	0,48
Hududning raqamli transformatsiyasi reputatsiyasi (HRTR)	4,77	0,48	0,10	0,45
HJI				6,18

Keyingi tahlil bu Xorazm viloyatiga ishonch darajasini aniqlashdir. Ishonch darajasi – hududdagi reputatsiya omillarining barqarorligi yoki beqarorligi asosida shakllanadi. Hududdagi ishonch darajasini aniqlash uchun anketa natijalari va reputatsiya omillari asosida tahlil o'tkazish mumkin va quyidagi gipotezalardan foydalaniladi:

H1-agar reputatsiya baholaridagi o'zgaruvchanlik (dispersiya) kam bo'lsa, bu barqaror ishonch sifatida baholanadi;

H2-agar baholardagi o'zgaruvchanlik yuqori bo'lsa, bu beqaror ishonch belgisi bo'lishi mumkin.

Gipotezalarni ko'rib chiqish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$CD = \frac{\sigma}{\mu} * 100 \quad (3.2)$$

Bu yerda,

σ – standart og'ish

μ – o'rtacha baholar

Mazkur formula asosida anketa natijalari bnyicha hisoblangan natijalar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Xorazm viloyati hududiy reputatsiyasi bo'yicha ishonch darajasini baholash¹²

Indikatorlar	N	O'rtacha qiymatlar	Standart og'ish	CD	Baholash
Hududning tovar va xizmatlar bozori reputatsiyasi (RTR)	600	4,90	1,13	0,23	<i>Barqaror</i>
Hududning ijtimoiy reputatsiyasi (HIJR)	600	6,95	3,35	0,48	<i>Beqaror</i>
Hududning ichki reputatsiyasi (HIR)	600	4,71	1,30	0,28	<i>Beqaror</i>

11 Muallif tomonidan tuzilgan

12 Muallif tomonidan tuzilgan

Hududning biznes-reputatsiyasi (HBR)	600	7,18	2,95	0,41	<i>Beqaror</i>
Hududning resurs salohiyati reputatsiyasi (HRR)	600	8,01	1,67	0,21	<i>Barqaror</i>
Hududiy hokimiyat reputatsiyasi (HHR)	600	7,10	3,13	0,44	<i>Beqaror</i>
Hududning tashqi reputatsiyasi (HTTR)	600	4,88	1,07	0,22	<i>Barqaror</i>
Hududning raqamli transformatsiyasi reputatsiyasi (HRTR)	600	4,77	1,25	0,26	<i>Barqaror</i>

Barqaror reputatsiya omillari sifatida hududning tovar va xizmatlar bozori reputatsiyasi (RTR) ($CD = 0.23$) ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Xorazm viloyatida mahsulotlar va xizmatlar sifati barqaror deb baholandi. Hududning resurs salohiyati (HRR) ($CD = 0.21$) tabiiy va inson resurslarining samaradorligi barqaror ekanligi tasdiqlanmoqda. Hududning tashqi reputatsiyasi (HTTR) ($CD = 0.22$) ya'ni xalqaro imiji barqaror holatda. Sababi, Xorazm viloyatining turistik zona ekanligi boasida qadimdan ijobiy reputatsiya mavjud va ushbu holat saqlanib qoladi. Hududning raqamli transformatsiyasi (HRTR) ($CD = 0.26$) – raqamli infratuzilma va texnologiyalar rivojlanish darajasi barqaror.

O'tkazilgan anketa asosida hudud reputatsiyani shakllanish darajasini ham o'lchash mumkin. Hudud reputatsiyasining shakllanish darajasini uchta mezon asosida baholash mumkin:

Spontan (Spontan) – reputatsiyaning tabiiy ravishda shakllanishi. Hududda reputatsiya maxsus targ'ibot va boshqaruvsiz shakllanishini anglatadi. Asosan jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari va odamlar tajribasiga asoslanadi.

Qisman shakllanuvchi (Qisman shakllanuvchi) – ijtimoiy muhit va biznes omillar ta'sirida shakllanadi. Reputatsiyani muayyan darajada davlat siyosati, biznes muhiti va ijtimoiy jarayonlar shakllantiradi. Biroq, bu jarayon o'z-o'zidan yuz beradi, muntazam ravishda rejalashtirilmaydi.

Maqsadli shakllangan (Maqsadli shakllantirilgan) – Boshqaruv va strategiya asosida reputatsiyani shakllanishi. Hudud reputatsiyasi muayyan strategiya va boshqaruv siyosati orqali shakllantiriladi. Davlat, biznes va jamoatchilikning maqsadli sa'y-harakatlari natijasida vujudga keladi.

Hudud reputatsiyasining shakllanish darajasini baholash uchun anketa natijalari va reputatsiya omillari asosida korrelyatsion tahlil usulidan foydalanish taklif etiladi. Korrelyatsiya koeffitsiyentining miqdoriy qiymatlari davlat siyosati, biznes va ijtimoiy muhit kabi omillarning o'zaro bog'liqlikda rivojlanish holatlariga ko'ra baholanadi. Agar omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar yuqori bo'lsa maqsadli shakllanganlikni, agar jamoatchilik fikri asosiy omil bo'lsa spontan shakllanayotganlikni aniqlash imkonini beradi. Xar bir reputatsiya omili bo'yicha olingan korrelyatsiya natijalari quyidagi shkalaga muvofiq baholanadi:

$r < 0.3$ - spontan (tabiiy ravishda)

$0.3 \leq r < 0.7$ - qisman shakllanuvchi (ijtimoiy va biznes ta'sirida)

$r \geq 0.7$ - maqsadli shakllangan (boshqaruv va strategiya asosida)

Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali hudud reputatsiya omillari o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi. Tadqiqot natijalari $r < 0.01$ darajasida statistik ahamiyatli deb topilgan va baholash natijalari 7-jadvalda aks etgan.

7-jadval

Hudud reputatsiya omillari o'rtasidagi bog'liqliklar statistikasi¹³

Indikatorlar	(RTR)	(HIJR)	(HIR)	(HBR)	(HRR)	(HHR)	(HTTR)	(HRTR)
(RTR)	1	0,835**	-0,343**	-0,345**	0,819**	0,824**	0,794**	0,789**
(HIJR)	0,835**	1	-0,376**	-0,381**	0,959**	0,976**	0,852**	0,916**
(HIR)	-0,343**	-0,376**	1	0,929**	-0,374**	-0,381**	-0,329**	-0,372**
(HBR)	-0,345**	-0,381**	0,929**	01	-0,382**	-0,384**	-0,337**	-0,373**
(HRR)	0,819**	0,959**	-0,374**	-0,382**	1	0,977**	0,827**	0,912**
(HHR)	0,824**	0,976**	-0,381**	-0,384**	0,977**	1	0,840**	0,915**
(HTTR)	0,794**	0,852**	-0,329**	-0,337**	0,827**	0,840**	1	0,799**
(HRTR)	0,789**	0,916**	-0,372**	-0,373**	0,912**	0,915**	,799**	1

Korrelyatsion tahlil natijalari teskari korrelyatsiyaga ega omillariga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Mazkur omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin. Hudud ichidagi jamoatchilik fikri va biznes muhiti o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjud. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar va mahalliy aholining hududga nisbatan ishonchi o'rtasida teskari bog'liqlik bor. Hukumat tomonidan biznes muhitiga ta'sir ko'rsatish darajasi yuqori bo'lsa-da, tadbirkorlik faoliyatida haligacha bir qator cheklovlar mavjudligi aniqlanmoqda. Amalga oshirilgan tahlil natijalari ijtimoiy reputatsiya va resurs salohiyati o'zaro bog'liqlardan kelib chiqqanda viloyatda resurslardan samarali foydalanish ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun aniq strategik yo'nalishlar belgilab berish talab etiladi.

Hudud imijini mustahkamlash orqali investitsiyalar, turizm, tadbirkorlik va tashqi savdo aylanmasi kabi ko'rsatkichlarning o'sishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Investitsiya oqimi yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini ko'tarsa, turizm sektorining rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyalanishiga yordam beradi. Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, tashqi bozorlarga chiqish mahalliy mahsulotlarga talabni oshiradi va aholining daromadlarini yaxshilaydi. Mazkur fikrlardan kelib chiqib, hudud imijini aks ettiruvchi iqtisodiy omillar sifatida tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagi gipotezalar shakllantirish mumkin:

H1- hududda investitsiyalarning o'sishi aholi daromadlarining oshishiga ijobiy ta'siri mavjud;

H2-hudud turizmini rivojlanishi barqaror iqtisodiy rivojlanishga va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi;

H3-tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi aholi bandligi va daromadlariga ijobiy ta'siri mavjud;

H4-tashqi savdo aylanmasi o'sishi aholi daromadlari va barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'siri mavjud.

13 Muallif ishlanmasi

Keltirib o‘tilgan gipotezalar asosida Xorazm viloyatining hudud imiji va iqtisodiy rivojlanishning aholi daromadlariga ta’sirini o‘rganish orqali istiqbolda qaysi jihatlarga yuqori ahamiyat qarashi bo‘yicha xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi asosiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda VAR14 modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur model ko‘rsatkichlarning bir-biriga ta’sirini va kelajakdagi o‘zgarishlarni taxmin qilish uchun eng mos model hisoblanadi. Hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillarning aholi farovonligini oshirishga ta’sirini aniqlash va bu boradagi istiqbolli ko‘rsatkichlarni prognoz qilish uchun quyidagi o‘zgaruvchilar tanlangan:

Y – Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi, ming so‘m;

X_1 – Xorazm viloyatiga yo‘naltirilgan chet el investitsiyalari va kreditlari, mlrd. so‘m;

X_2 – Xorazm viloyatining turistik xizmatlar xajmi, mlrd.so‘m

X_3 – Xorazm viloyati bo‘yicha faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni, 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

X_4 – Xorazm viloyati tashqi savdosi, mln. AQSh dollarida

VAR modeli asosida Xorazm viloyatining hudud imijini shakllantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning 2030-yilgacha prognoz qiymatlarini hisoblangan natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Xorazm viloyatida hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillar ta’sirida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining hisoblangan prognoz qiymatlari¹⁵

Yillar	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi, ming so‘m	Xorazm viloyatiga yo‘naltirilgan chet el investitsiyalari va kreditlari, mlrd. so‘m	Xorazm viloyatining turistik xizmatlar xajmi, mlrd.so‘m	Xorazm viloyati bo‘yicha faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni, 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda	Xorazm viloyati tashqi savdosi, mln. AQSh dollarida
2025	28480,9	5293,0	85,0	6388,6	793,3
2026	34583,5	5748,0	91,5	7942,1	839,3
2027	38137,7	6202,9	97,9	9664,1	885,4
2028	43444,1	6657,8	104,4	11554,4	931,4
2029	50534,8	7112,7	110,9	13613,0	977,4
2030	55512,7	7567,7	117,4	15840,0	1023,4

Xorazm viloyatida hudud imijini shakllantiruvchi asosiy omillar ta’sirida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining hisoblangan prognoz qiymatlariga ko‘ra 2030-yilgacha bo‘lgan davrda boshqa omillarning ta’sirisiz 2025-yildagi 28480,9 ming so‘mdan 2030-yilga borib 55512,7 ming so‘mni tashkil etishi aniqlandi. Prognoz natijalariga ko‘ra, Xorazm viloyatining aholi jon boshiga daromadlari xorijiy investitsiyalar, turizm xizmatlari, tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi va tashqi savdoning o‘sishi natijasida 2030-yilda qariyb 2,5-marta o‘sishi kuzatiladi.

14 Vector Error Correction Model (VECM) – o‘zaro bog‘liq iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli va qisqa muddatli munosabatlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi

15 SPSS Statistical paket dasturi asosida olingan natijalar

Investitsiyalar va tadbirkorlik subyektlarining o'sishi/pasayishi turli yillarda keskin farqlanadi, buning asosiy sababi 2020-yilda ko'rilgan Covid-19 pandemiyasining ta'siri va boshqa turli iqtisodiy vaziyatlar va sikllar bilan bog'liqdir. Shundan bo'lsada, investitsiyalar va tadbirkorlik subyektlarining o'sishi aholi daromadlariga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm va tashqi savdo yuqori o'zgaruvchanlik namoyon etmoqda va bu iqtisodiy siyosat yoki tashqi bozor ta'siriga bog'liq bo'lib O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan samarali integratsiyalarining natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Hududning ijobiy imijini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelingan:

1. Hududiy rivojlanishning zamonaviy nazariyalari doirasida iqtisodiy, ijtimoiy, investitsion va turistik salohiyatini oshirish uchun innovatsion strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish zarurati mavjud. Ushbu jarayonlar hududning o'ziga xos xususiyatlarini samarali targ'ib qilish, mavjud tabiiy resurslar, ijtimoiy infratuzilma va turizm imkoniyatlarini integratsiyalashgan yondashuv asosida ilgari surish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali amalga oshirilgan imij yaratish strategiyalari hududlarni jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini oshirishga, investorlar va turistlar oqimini jalb qilishga xizmat qiladi. Shu bois, imij yaratish strategiyalarini joriy etish nafaqat hududiy rivojlanish, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

2. Imij yaratish konsepsiyalari hududning o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatish va ularni global miqyosda samarali targ'ib etish tamoyillariga asoslanadi. Bu jarayonda innovatsion marketing vositalaridan, jumladan, marketing miks, brending va raqamli marketing orqali targ'ibot tadbirlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali hududiy imijni mustahkamlashga erishiladi.

3. Hududiy imij vaqt davomida o'zgarishi mumkin, u siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar va tabiiy ofatlar kabi holatlarga bog'liq holda rivojlanadi. Mazkur holatdan kelib chiqqanda "hududiy imij – bu muayyan hudud haqida jamoatchilik ongida shakllanadigan dinamik va ko'p qirrali bo'lib, u tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar hamda shaxsiy tajribalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida shakllanadigan tasavvurlar majmui sifatida qaralishi lozim.

4. Mamlakatning ijobiy imijini yaratish uchun aniq strategik yo'nalishlar belgilab olingan xolda harakat qilish talab etiladi. Mazkur strategiyalarni ishlab chiqish uchun strategik marketing vositalaridan foydalanish lozim. Bunday strategik maqsadlar hududlar bo'yicha investorlar va turistlar xabardorligini oshirishga yo'naltirilishi lozim.

5. Samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim strategik imkoniyat sifatida noyob madaniy merosi, tabiiy resurslari va strategik joylashuvidan foydalangan holda investitsiyalarni jalb qilishlari, mahalliy sanoatni rivojlantirishlari va aholining hayot sifatini yaxshilash kabilarga qaratilishi lozim.

6. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining tahlillari real sektor korxonalarini mutanosib ravishda barqaror rivojlantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishini barqaror holatga keltirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalash borasidagi olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar uchun imij yaratish jarayoni keng qamrovli marketing tadqiqotlari hamda maqsadli kommunikatsion strategiyalar orqali

shakllantirilib, ushbu jarayonda hududning iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslar va ekologik omillar, ijtimoiy infratuzilma, turizm va madaniy meros kabilarga bo'yicha strategik vositalar sifatida qarash talab etiladi.

7. Xorazm viloyatida kengaytirilgan SWOT tahlil natijalari asosida aniqlangan raqamli marketing texnologiyalarini qo'llash, aholining turmush sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy marketing dasturlaridan foydalanish, malakali xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi samarali munosabatlarga asoslangan menejment usullari, an'anaviy va raqamli marketing kommunikatsiyalari, yashil marketing hamda investitsion marketing strategiyalari imij yaratishga qaratilgan ustuvor strategik maqsadlar sifatida belgilab olinishini lozim.

8. Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyaga ega hududlar raqobat muhitida ustuvor mavqega ega bo'lib, ularning mavjud imiji va brendini shakllantiruvchi omillar hudud iste'molchisi, investor va turistlar tanlovini shakllantiruvchi muhim rag'bat sifatida namoyon bo'ladi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy reputatsiyasi investor va turistlar uchun ijobiy tasavvurlari shakllantirish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, raqobatbardoshligini oshirish va boshqa hududlarga nisbatan barqaror rivojlanishning nomoddiy omili sifatida qaralishi lozim.

9. Taklif etilgan Xorazm viloyatining ijobiy reputatsiyani ta'minlashning strategik boshqaruv, iqtisodiy barqarorlashuv, jamoatchilik bilan ishlash va kommunikatsiya, ilg'or texnologiyalar va raqamli transformatsiya mexanizmlaridan foydalanish orqali ijobiy reputatsiyaga erishiladi va natijada raqobatbardoshlik ta'minlanadi.

10. Hudud imijini yaratish jarayonlarini boshqarish mahalliy hokimliklar va jamoat tashkilotlarning asosiy vazifalari hisoblanadi va ularning strategik qarorlar qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan ilmiy metodologik bazani shakllantirish orqali hududlarni xalqaro imijini oshirishga yuqori imkoniyatni ta'minlaydi.

11. Xorazm viloyatining imiji yaratish strategiyalarini to'g'ri shakllantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilmaviy rivojlanish, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini modernizatsiya qilish orqali aholi turmush darajasi yaxshilanadi. Shuning uchun hudud imijini shakllantirish barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlashning asosiy strategik yondashuvi sifatida markaziy o'rin bo'lishi talab etiladi.

12. Hududiy imijni shakllantiruvchi asosiy omillar ta'sirida Xorazm viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning o'sish dinamikasi 2030-yilga borib 55 512,7 ming so'mga yetishi va mazkur davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar qariyb 2,5 baravar oshishini prognozlash natijasida aniqlangan. Mazkur o'sishga erishish uchun hududning investitsion jozibadorligini oshirish va yirik investorlarni jalb qilish orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirish, viloyatining tarixiy va madaniy obidalari, ekoturizm hamda agroturizm imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion startaplarni rag'batlantirish talab etiladi. Ushbu yondashuvlar Xorazm viloyatining hududiy imijini mustahkamlash bilan birga, aholi turmush darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ
РАЙХАНА БЕРУНИ**

ШАРИПОВ АКБАР ИЛХОМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ИМИДЖА
РЕГИОНА**

08. 00. 12 – “Региональная экономика”

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ургенч – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5193

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Абдуллаев Ильяс Султанович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Атаджанов Умид Абдуллаевич доктор экономических наук, доцент Авезов Мирзабек Комилович доктор философии (PhD) по экономике
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ : ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни. (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

У.Р. Матякубов

И.о. председателя диссертационного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Т.Ж.Рахимов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Б.Рузметов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях изменений в глобальной экономике мира потребность в повышении конкурентоспособности регионов неуклонно возрастает. В современной рыночной экономике особенно важное значение приобретает не только эффективное использование материальных ресурсов регионами, но и нематериальных активов, а также инновационные подходы и инструменты, направленные на развитие внутреннего и неиспользованного потенциала. Согласно рейтинговым данным Brand Finance, в 2024 году Соединённые Штаты Америки стали самым дорогим национальным брендом в мире с рыночной стоимостью 32,3 трлн долларов США, в то время как Китай занял второе место с приблизительной стоимостью бренда в 20 трлн долларов¹⁶. Данные результаты требуют от стран создания имиджа границы в свете снижения спроса на инновационные продукты и услуги в мировой экономике.

Мировой опыт показывает, что в результате совершенствования организационно-экономических механизмов создания регионального творческого имиджа создаются новые возможности для местных предпринимателей, укрепляя инвестиционный и туристический потенциал, а также укрепляется конкурентоспособность на глобальном рынке. Государства могут использовать свои уникальные экономические, культурные и социальные особенности для создания конкурентоспособной среды на глобальных рынках, в которой используются цифровые технологии, социальные тенденции и современные стратегические подходы. В связи с этим использование комплексных подходов к разработке стратегий общего развития и продвижения, направленных на создание имиджа региона, а также приемлемых стратегий по повышению доходов населения, основанных на создании позитивного имиджа и повышении ответственности за бренд региона, рассматривается как важное исследовательское достижение.

В процессе построения Нового Узбекистана процесс социально-экономического развития регионов выводится на качественно новый этап. В условиях современной экономики особое внимание уделяется повышению экономического потенциала регионов, организации производства в соответствии с требованиями международного рынка, а также стратегическому развитию с учётом региональных особенностей. В Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии “Узбекистан – 2030”» определены такие стратегические цели, как «удвоение объёма экономики к 2030 году и вхождение в число государств с уровнем дохода выше среднего», а также «всесторонняя поддержка экспортеров, выносящих национальные бренды на зарубежные рынки» на основе идеи «Новый Узбекистан – страна конкурентоспособной продукции»¹⁷. Для достижения этих целей необходимо использовать предусмотренные организационные и экономические механизмы

16 <https://brandirectory.com/reports/global>

17 Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № пф-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030». <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

для формирования имиджа территорий и эффективного продвижения местных брендов на международных рынках, разработать модель развития территорий с использованием их имеющихся ресурсов, укрепить инвестиционную и туристическую позицию территорий на международном и мировом рынках, интегрировать местных предпринимателей в мировые рынки, использовать эффективные технологии и конкурентные платформы для интеграции территорий в мировую экономику.

Данная диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных Указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О стратегии “Узбекистан — 2030”» от 11 сентября 2023 года, № УП-5643 «О мерах по совершенствованию системы управления в сфере инвестиций и внешней торговли» от 28 января 2019 года, № УП-6042 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию экспортного и инвестиционного потенциала Республики» от 18 августа 2018 года, а также постановления № ПП-4135 «Об организации деятельности Министерства инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан» от 28 января 2019 года, Постановлениях Кабинета Министров № 592 «Об утверждении административного регламента выбора наилучшего предложения для реализации крупного инвестиционного проекта» от 21 сентября 2021 года, № 169 «Об организации деятельности Агентства международного сотрудничества и развития при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан» от 30 марта 2021 года, а также других нормативно-правовых актов, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

